O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Xakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiqodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	



DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS.....	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutulibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeovich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI.....	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinova	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSIYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION.....	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH.....	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL.....	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI.....	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIYQ-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH.....	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI.....	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLUKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	



YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELİ	1644
Hamzayeva Difuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAQAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIVAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	



AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI

Aripov Oybek Abdullaevich

Namangan davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, DSc, professor.

Annotatsiya. Maqolada AQSh va Fransiya kichik biznesni tasniflash mezonlari, xususan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan. SBA standartlari, tarmoqlar bo'yicha farqlar hamda Fransiya hunarmandchilikning huquqiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, korxona egasining mehnatga munosabati kichik biznes mezonining muhim belgisi sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, mezonlar, sifat ko'rsatkichlari, ishchilar soni, aylanma mablag', SBA, NAICS, AQSh tajribasi, Fransiya tajribasi, hunarmandlar, sertifikatlashtirish.

Abstract. The article analyzes the criteria for classifying small businesses in the United States and France, focusing on both quantitative and qualitative indicators. SBA standards, industry-specific differences, and the legal features of crafts in France are examined. The attitude of the business owner toward labor is substantiated as an important characteristic within the criteria for defining small businesses.

Key words: small business, entrepreneurship, criteria, quality indicators, number of employees, turnover, SBA, NAICS, US experience, French experience, artisans, certification.

Аннотация. В статье анализируются критерии классификации малого бизнеса в США и Франции, в частности количественные и качественные показатели. Рассматриваются стандарты SBA, отраслевые различия, а также правовые особенности ремесленничества во Франции. Обосновано, что отношение владельца бизнеса к труду является важной характеристикой критерия малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, критерии, показатели качества, численность работников, оборот, SBA, NAICS, опыт США, опыт Франции, ремесленники, сертификация.

KIRISH

Dunyo iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati izchil ortib bormoqda. Mazkur sektor iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni joriy etish, sog'lom raqobatni shakllantirish, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Turli davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati, avvalo, tadbirkorlik subyektlarini aniq mezonlar asosida tartibga solish va ularga maqsadli imtiyozlar taqdim etishga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu maqolada AQSh va Fransiya misolida kichik biznesni tasniflash mezonlari, ularning huquqiy asoslari va amaliyotdagi farqlari ilmiy tahlil qilinadi.

Xalqaro amaliyotda kichik biznes va tadbirkorlikning asosiy mezonlari mamlakatlar kesimida farqlansa-da, ko'plab davlatlarda qo'llaniladigan umumiy yondashuvlar mavjud. Mazkur mezonlarning eng ommaviy ko'rinishi 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, ular yordamida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan samarali tartibga solish hamda ularni maqsadli qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlanadi (1-jadval).

1-jadval. Turli mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlikni tasniflash mezonlari¹

Mikro-, kichik va o'rta biznesni ajratishda qo'llaniladigan asosiy mezonlar quyidagilardan iborat
xodimlar soni;
yillik aylanma (revenue/turnover) hajmi
aktivlar qiymati
korxonaning yirik kompaniyalarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil faoliyat yuritishi
Ushbu mezonlarning qo'llanishidan ko'zlangan asosiy maqsadlar
soliq va buxgalteriya yukini maqbullashtirish
kredit va grantlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash
davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarida subyektlarni samarali saralash
raqobat muhitini tartibga solish va bozor barqarorligini ta'minlash

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ushbu sektor ko'plab davlatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati ularning iqtisodiy taraqqiyotida anchadan beri (aniqrog'i, so'nggi 40 yildan buyon) muntazam ravishda e'tirof etib kelinmoqda. Shu sababli rivojlangan davlatlarda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha boy tajriba shakllangan.

E'tiborlisi shundaki, ushbu mamlakatlarda tutilgan tajribalar global iqtisodiy jarayonlarda ham yangicha yondashuvlar va takomillashuvni taqozo etmoqda. Bugungi kunda kichik biznesning rivojlanish omillari bilan bir qatorda, ushbu sektor subyektlari faoliyatini belgilash hamda mezonlarini aniqlash borasida bir qator nazariy talqinlar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik mezonlarini belgilash masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Ilmiy qarashlar avvaliga xodimlar soni, aylanma mablag'lar hajmi va aktivlar qiymati kabi miqdoriy ko'rsatkichlarga tayangan bo'lsa, keyinchalik sifat xususiyatlari va institutsional omillarga asoslangan yondashuvlar ham shakllandi.

AQSh amaliyotida U.S. Small Business Administration (SBA)² tomonidan ishlab chiqilgan "Size Standards" tizimi yetakchi o'rin tutadi. Ushbu tasnif kichik biznesni tarmoq xususiyatlari asosida aniqlaydi va xodimlar soni hamda yillik daromad mezonlari bilan farqlaydi. Nikolas Siropolisning tadqiqotlari ushbu mezonlarning amaliy qo'llanishini ko'rsatib, bozor ulushi, innovatsion faoliyat va boshqaruv moslashuvchanligining ham muhim omil ekanini ta'kidlaydi.

Sifat ko'rsatkichlariga oid adabiyotlarda Stenli kichik biznesni shaxsiy boshqaruv, mijoz va ta'minotchilar bilan bevosita aloqadorlik orqali tavsiflaydi. F. Klark esa kichik biznes mohiyatini nafaqat foyda bilan, balki ijodkorlik, mustaqillik va turmush sifati kabi nomoddiy omillar bilan ham bog'laydi.

Fransiya amaliyotida kichik biznes mezonlari hunarmandchilik an'analari, kasbiy malaka va sertifikatlash talablari bilan izohlanadi. J. Chatain va R. Gaudonning tasnifiga ko'ra, fransuz modeli hunarmandlar, cheklangan miqdorda yollanma ishchilar bilan ishlovchi korxonalar va takror ishlab chiqarish imkoniyatiga ega subyektlar kabi guruhlarga bo'linadi. Bunda mahsulot sifati va kasbiy an'analarning muhim ustuvorlik sifatida qayd etiladi.

Yevropa va AQSh tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes mezonlari har bir mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi, bozor strategiyasi va tadbirkorlik madaniyatiga bog'liq holda shakllanadi. AQSh modeli innovatsiya va tez o'sishga yo'naltirilgan bo'lsa, Fransiya yondashuvi barqarorlik, mahorat va hunarmandchilik qadriyatlariga

¹ Muallifning turli manbalar asosida ishlanmasi.

² Izoh: SBA – Small Business Administration. Bu AQSh Federal hukumatiga qarashli mustaqil agentlik bo'lib, uning asosiy vazifasi – kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishini ta'minlash va iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirishdir.



tayanadi. Shu bois, kichik biznes mezonlarini iqtisodiy, huquqiy va madaniy omillar uyg'unligida o'rganish ilmiy adabiyotlarning umumiy xulosasini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda AQSh va Fransiya kichik biznes va tadbirkorlik mezonlarini qiyosiy tahlil qilish uchun kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid nazariy manbalar, qonunchilik hujjatlari va SBA (U.S. Small Business Administration) tomonidan belgilangan standartlar kontent tahlili (content analysis) usuli orqali o'rganildi. Bu yondashuv kichik biznes mezonlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha farqlarini tizimli ravishda aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil (comparative analysis) asosiy usul sifatida qo'llanib, AQShdagi tarmoq bo'yicha differensial mezonlar va Fransiya hunarmandchilikka tayangan modelning o'ziga xosligi solishtirildi. Shu jarayonda xodimlar soni, yillik aylanma, boshqaruv shakli, kasbiy malaka talablari va bozor xulq-atvori kabi ko'rsatkichlar xalqaro tasniflar bilan taqqoslab baholandi.

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, turli ilmiy manbalardagi umumiy nazariy qarashlar asosida kichik biznesning sifat ko'rsatkichlariga doir umumlashtirilgan xulosalar shakllantirildi. Tahlil jarayonida Stenli, Klark, Siropolis, Chatain va Gaudon kabi olimlarning tasniflari mantiqiy tahlil orqali qayta ko'rib chiqildi va ularning qo'llash imkoniyatlari zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy qiymatini oshirish maqsadida kichik biznes subyektlari tasnifini belgilovchi mezonlar jadval ko'rinishida tizimlashtirilib, AQSh va Fransiya modellari o'rtasidagi farqlar strukturaviy tahlil asosida yoritildi. Metodologiyaning ushbu kombinatsiyasi kichik biznesni tasniflash bo'yicha har ikki davlatda shakllangan yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes mezonlarining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha nazariy yondashuvlarni tahlil qilish maqsadida AQSh va Fransiya ushbu sohaning rivojlanishi, davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar hamda huquqiy asoslarning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi.

Jahon miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sifat ko'rsatkichlari orqali tasniflashga doir mezonlar ham mavjud bo'lib, ularni aniqlash masalasi nisbatan murakkabdir. Hozirgacha bu masalada iqtisodchi olimlar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas. Shunga qaramay, ushbu tadqiqotda AQSh va Fransiya misolida kichik biznes mezonlarini sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil qilishga urinamiz.

Ma'lumki, AQShda kichik biznesning rivojlanishi uchun keng va qulay sharoitlar yaratilgan. Kichik biznes subyektlarining erkin faoliyat yuritishi, ular uchun puxta ishlab chiqilgan huquqiy asoslar va amaliy mexanizmlar ishbilarmonlik muhitining kengayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik biznes mezonlarining sifat ko'rsatkichlari ham muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda kichik biznesni tasniflashda asosan xodimlar soni inobatga olinadi. Biroq rivojlangan davlatlarda bunga qo'shimcha ravishda boshqa mezonlar ham ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilmoqda.

AQShda kichik biznesni belgilovchi mezonlar tizimi boshqa ko'plab davlatlardagiga nisbatan aniqroq va batafsil ishlab chiqilgan. Bu mezonlar korxonaning faoliyat turi, tarmoq xususiyatlari hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'ra farqlanadi. Masalan, ayrim sohalarida kichik korxona maqomi xodimlar soni asosida belgilanadigan bo'lsa, boshqa sohalarida yillik aylanma yoki foyda miqdoriga qarab tasniflanadi.

Small Business Administration (SBA) ma'lumotlariga ko'ra, AQShda kichik korxonalarni belgilashda xodimlar sonidan tashqari boshqa mezonlar ham qo'llaniladi. Jumladan, qayta ishlash sanoatida 250 nafar xodimgacha ega korxonalar kichik biznes sifatida tasniflanadi, 1 000 nafardan ortiq xodimga ega subyektlar esa yirik biznes toifasiga kiradi. Bir qarashda bu mezonlar faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangandek tuyuladi. Ammo AQShda qayta ishlash sanoati ko'plab kichik tarmoqchalarga bo'lingan bo'lib, har bir tarmoqchada kichik biznes mezonlari ma'lum darajada farqlanadi.

Xuddi shu fikrimizning dalili sifatida Nikolas L. Siropolisning "Kichik biznesni boshqarish" kitobidan olingan 2-jadvalni keltiramiz. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yirik tarmoqlar o'zining bir nechta tarmoqchalariga ega bo'lib, ular bo'yicha kichik korxonalar uchun ruxsat etilgan xodimlar soni turlicha belgilangan. Masalan, ishlab chiqaruvchilar misolida uch xil darajadagi mezonlarni ko'rish mumkin. Xuddi shuningdek, ulgurji savdo va chakana savdo tarmoqlari bo'yicha ham farqlangan mezonlar mavjud.

Eng ko'p xodimlar ishlab chiqarish sanoatining ayrim tarmoqchalarida faoliyat yuritadi, eng kam xodimlarga ega bo'lgan korxonalar esa xizmat ko'rsatish sohasining tarmoqchalarida uchraydi. Ulgurji savdo tarmoqchalari esa o'rta ko'rsatkichlarga ega. Masalan, mebel mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarda 500 nafargacha xodim ishlashi mumkinligi belgilangan. Ushbu mezonlar AQSh Kongressi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan (2-jadval).

2-jadval. SBA bo'yicha kichik korxonalar tarkibiga kiritiluvchi mezonlar³

Ishlab chiqaruvchilar	Xodimlar soni bo'yicha mezon
Neftni qayta ishlash korxonalari	1500
Elektr hisoblash mashinalari (EHM) ishlab chiqarish korxonalari	1000
Makaron va spaghetti ishlab chiqarish korxonalari	500
Ulgurji savdogarlar	Xodimlar soni bo'yicha mezon
Sport mahsulotlari bo'yicha ulgurji savdo korxonalari	500
Mebel savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar	500
Lak va bo'yoq mahsulotlari ulgurji savdosi	500
Chakana savdogarlar	Yillik savdo tushumi bo'yicha mezon
Boqqollik va oziq-ovqat do'konlari	13,5
Avtomobil agentliklari	11,5
Restoranlar	10,0
Xizmat ko'rsatish subyektlari	Savdodan tushum, million \$ yiliga, kamid
EHM xizmati	12,5
Buxgalterlik xizmatlari	4,0
Televizorlarni ta'mirlash xizmati	3,5

2-jadvalning mazmuni shundan iboratki, unda kichik biznes mezonlarini belgilovchi ko'rsatkichlar, avvalo, xodimlar soni orqali aks ettirilgan bo'lsa-da, har bir yirik tarmoq ichida uning tarmoqchalarini bo'yicha yanada aniqroq gradatsiya mavjud. AQShda muvaffaqiyat mezonlari orasida bozor ulushini kengaytirish, tezkor rivojlanish va yirik kapitalni jalb qilish alohida ahamiyatga ega. Shu bois, kichik biznes subyektlari ko'pincha tez masshtablanish imkoniyatiga ega bo'lib, raqobat jarayonida faol va strategik yondashuvlardan foydalanadi.

Xususan, AQShda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish mantig'i quyidagi ketma-ket jarayonlar orqali namoyon bo'ladi:



AQSh tadbirkorligini rivojlantirishga oid zanjir tadbirkorlik madaniyatining mazmunini aniq va mantiqiy tarzda ifodalaydi. Ushbu zanjirdan ko'rinadiki, AQShda biznesni boshlashda asosiy harakatlantiruvchi kuch yangi texnologiyalarni yaratish, innovatsion biznes modellardan foydalanish hamda bozorga yangi mahsulot olib chiqishga qaratilgan. Shu ma'noda innovatsiya tadbirkorlikning bosh omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes mezonlarini aniqlashda sifat ko'rsatkichlaridan biri — bu yangilikni tezkor joriy etish qobiliyatidir. Bundan tashqari, AQShda qabul qilingan qonunchilik normalariga muvofiq, SBA tomonidan belgilangan talablar (shartlar) ham mavjud bo'lib, kichik biznes subyektlarini tartibga solish tizimi o'ziga xos tarzda shakllantirilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes mezonlarini aniqlashda sifat ko'rsatkichlaridan biri — bu yangilikni tezkor joriy etish qobiliyatidir. Bundan tashqari, AQShda qabul qilingan qonunchilik normalariga muvofiq, SBA tomonidan belgilangan talablar (shartlar) ham mavjud bo'lib, kichik biznes subyektlarini tartibga solish tizimi o'ziga xos tarzda shakllantirilgan (3-jadval).

³ Manba: Siropolis N. Upravlenie malo'm biznesom. Rukovodstvo dlya predprinimateley. / Per. s angl. Akademiya narodnogo xozyaystva. —M.: Delo, 1997. S. 20.

3-jadval. AQSh qonunchiligiga muvofiq kichik korxonaga kirish mezonlari⁴

Mezon / shart	Talablar (SBA bo'yicha)
Qonuniy mazmun (universal shartlar)	Korxona foyda (profit) olish maqsadida tashkil etilgan bo'lishi. Mustaqil egalik va boshqaruvga ega bo'lishi; ya'ni milliy darajada ustun mavqega ega (dominant) kompaniya hisoblanmasligi. AQSh (yoki uning hududlari)da joylashgan va amalda faoliyat yuritayotgan bo'lishi. Korxonaning faoliyat turi Sanoat tasnifi tizimi — North American Industry Classification System (NAICS) ga mos bo'lishi.
O'lcham mezonlari (size standards)	Kompaniyaning "kichik biznes" sifatida tan olinishi sanoat turiga bog'liq ravishda quyidagi mezonlardan biriga yoki ikkala mezonga birgalikda rioya qilinishini talab etadi: •xodimlar soni bo'yicha belgilangan chegaralarga mos kelishi; •o'rtacha yillik daromad (annual receipts / revenue) belgilangan miqdordan oshmasligi.
Afillangan ⁵ (affiliate) korxonalarni hisobga olish tartibi	Agar korxonaga 50 foiz yoki undan ortiq darajada egalik yoki boshqaruv orqali ta'sir ko'rsatuvchi boshqa kompaniyalar mavjud bo'lsa, ushbu affillangan korxonalar xodimlari yoki daromadlari ham umumiy hisobga qo'shiladi.


Fransiyada kichik va o'rta tadbirkorlarning umumiy konfederatsiyasi ta'kidlashicha, kapitalining asosiy qismi o'z mulkidan iborat bo'lgan, o'z xodimlarini shaxsan boshqaradigan va ular bilan doimiy hamda bevosita aloqada bo'la oladigan korxona egalari boshqaruvdagi subyektlar kichik va o'rta korxonalar toifasiga kiritiladi.

Bundan tashqari, Fransiyada hunarmandlar ham alohida toifa sifatida faoliyat yuritadi. Ular o'z mablag'lari hisobidan korxona tashkil etib, 10 nafargacha ish o'rinlari yaratishlari mumkin. Zarur hollarda hunarmandning o'zi ham korxona jarayonlarida bevosita ishtirok etadi, ya'ni u faqat rahbarlik vazifasini bajarib qolmay, balki ishchilar bilan barobar mehnat qiladi. Chunki mahsulot ishlab chiqarishning eng nozik bosqichlarini bajarishda hunarmandning mahorati oddiy ishchi mehnati bilan tenglashtirilmaydi. Buning sababi — hunarmandlar o'z kasbi bo'yicha chuqur bilim va yuksak malakaga ega bo'lishidir.

Ularining professionalligi maxsus sertifikat bilan tasdiqlanishi shart. Aks holda ular Hunarmandlar palatasiga a'zo bo'la olmaydi. Palataga a'zolik esa qonuniy faoliyat yuritish hamda hunarmand sifatida tan olinishi uchun muhim mezon hisoblanadi.

Shu tariqa, Fransiyada hunarmandlar professional ko'nikma (skill) va yuksak mahoratga ega bo'lishlari, bu malakani sertifikat orqali tasdiqlashlari, shuningdek o'z korxonalarini ochib, ishlab chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etishlari talab etiladi. Ushbu tizim ularning kasbiy faolligini oshiradi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yuqori sifatini ta'minlaydi.

Fransiyada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarida quyidagi ketma-ketlik ustuvor ahamiyatga ega:



Fransiya tadbirkorligini rivojlantirishga oid zanjir

Bizning fikrimizcha, turli hajmdagi korxonalarni aniqlashda kichik biznes mezonining asosiy sifat ko'rsatkichlari korxona egasining mehnatga bo'lgan munosabati va korxonani boshqarishdagi ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Agar AQShda kichik biznes mezonlarini belgilashda mayda, o'rta va yirik tadbirkorlarning mehnat jarayoniga hamda boshqaruvga bo'lgan yondashuvlari inobatga olinsa, Fransiyada bu masalada boshqacha yondashuv qo'llaniladi. Ayniqsa, mayda tadbirkorlarni alohida toifa sifatida ajratish o'rniga ularning funksiyasini hunarmandlar bajarishi huquqiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi (4-jadval).

4 Jadval muallif tomonidan tuzilgan. Manbalar: <https://www.sba.gov/document/support-table-size-standards>; <https://www.sba.gov/federal-contracting/contracting-guide/size-standards?utm>

5 Izoh: Affiliatlik – bu kompaniyalar o'rtasidagi egalik, nazorat yoki ta'sir tufayli ularni bir butun iqtisodiy subyekt sifatida hisobga olish tushunchasidir.



4-jadval. AQSh va Fransiyada korxona egasining mehnatga hamda korxonani boshqarishga bo'lgan munosabati orqali kichik biznes mezonini belgilovchi sifat ko'rsatkichlari⁶

AQShdagi ko'rinish	Mayda tadbirkor	o'z firmasini mustaqil boshqaradi va ishchilar bilan bevosita aloqa o'rnatadi.	Fransiyadagi ko'rinish
	O'rta tadbirkor	asosan aqliy mehnat bilan shug'ullanadi, yollanma ishchilardan foydalanadi va ular bilan ko'proq muloqotda bo'ladi.	
	Yirik tadbirkor	korxona boshqaruv jarayonidan nisbatan uzoqlashgan bo'lib, o'zining xodimlari, ayniqsa ishlab chiqarishdagi ishchilar bilan bevosita aloqa o'rnatmaydi.	
	Hunarmand (Fransiya modeli uchun xos)	bir vaqtning o'zida mulkdor, boshqaruvchi va ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etuvchi ishchi vazifasini bajaradi.	

Fransiya an'anaviy hunarmandchilikka tayangan tizimni ma'qul ko'radi. Chunki mamlakatda kichik biznesning katta qismi hunarmandlardan iborat bo'lib, ular mahsulot sifati, mahorat va kasbiy an'analarni saqlashga alohida e'tibor qaratadi. Fransiyaning biznes modelida tez mashtablanişdan ko'ra, faoliyat barqarorligi va sifatning ustuvorligi muhim o'rin tutadi. Bu holatni 1-chizma orqali yanada aniqroq tushuntirish mumkin.

G'arb iqtisodchi olimlari kichik biznesni tasniflashda o'ziga xos sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi mezonlarni taklif qilganlar. Xususan, amerikalik professor Stenlining "Kichik sanoatni rivojlantirish" asarida qayd etilishicha, quyidagi bandlardan kamida ikkitasi mos tushgan korxonalar kichik korxonalar qatoriga kiritiladi:

- nisbatan kam ixtisoslashgan korxonani egasi tomonidan shaxsan boshqarilishi;
- yuqori bo'g'indagi rahbariyatning ishchilar, mijozlar va ta'minotchilar bilan bevosita aloqada bo'la olishi;
- kapital bozoriga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi yoki qisqa muddatli kreditlarga oid qiyinchiliklarning uchrab turishi;

- oldi-sotdi muzokaralarida ustun mavqe egallash imkoniyatlarining cheklanganligi;
- mulkdor, rahbar va bozor bilan bog'liq lokal tashkiliy birliklarning nisbatan zaif integratsiyalashuvi.

Dastlabki ikki band kichik va o'rta korxonalar o'rtasidagi farqni ancha aniq ifodalab bersa, qolgan bandlar ham kichik, ham o'rta korxonalar faoliyati uchun umumiy bo'lishi mumkin. Shu sababli kichik va o'rta korxonalar ko'lamini ajratish ilmiy-uslubiy jihatdan murakkab emas.

Ingliz iqtisodchisi F. Klark kichik biznesning mohiyati faqat maksimal foyda olish bilan belgilanmasligini ta'kidlab, mustaqillik, ijodiy yondashuv va turmush sifatini yaxshilash kabi nomoddiy omillar ham katta ahamiyatga ega ekanini qayd etadi. Darhaqiqat, bunday omillar tadbirkorlik faoliyatida motivatsiyani kuchaytiradi. Shu bilan birga, foyda olish iqtisodiy faoliyatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qoladi.

Fransuz olimlari J. Shaten va R. Godon "Mayda va o'rta korxonalar: tanlov vaqti"⁷ asarlarida korxonalarni sifat xususiyatlariga tayangan holda quyidagi guruhlariga ajratgan:

1. Hunarmandlar va mayda xo'jayinlar — ishlab chiqarishning asosiy qismini bevosita bajaradi, yuqori malakaga ega bo'ladi va asosiy daromadni ana shu mehnat orqali oladi.

2. Cheklangan miqdorda yollanma ishchilardan foydalanadigan mayda korxonalar — ular ko'pincha "yopiq davra" (circuit fermé) doirasida faoliyat yuritadi va tirikchilik darajasida barqaror daromad keltiradi.

3. Kapital asosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga ega bo'lgan mayda va o'rta korxonalar — bunday korxonalar ko'plab yollanma ishchilarga ega bo'ladi, biroq bozor o'zgarishlari va iqtisodiy-siyosiy omillar ta'siriga sezgir bo'ladi.

4. O'rta va yirik nomonopol korxonalar — ular monopolistik bozor sharoitida raqobat kuchayganda o'z mavqeini mustahkamlash uchun strategik qarorlar qabul qilishi zarur bo'ladi⁸.

Mazkur tasnif rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi korxonalar holati haqida umumiy tasavvurni keng yoritadi.

Shunday qilib, AQSh va Fransiyada kichik biznes va tadbirkorlik mezonlarini tahlil qilganimizda, har ikki davlatda tadbirkorlik madaniyati, korxona ko'lam va tadbirkorning biznes jarayonidagi roli o'ziga xos yondashuvlar orqali shakllanishini ko'rish mumkin. Agar AQShda biznes madaniyati erkinlik, innovatsion faoliyat va riskka tayyorlikni rag'batlantirsa, Fransiyada tadbirkorlik madaniyati barqarorlik va hunarmandchilik an'analariga tayangan holda shakllangan (5-jadval).

6 Chizma muallif tomonidan ilmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan.

7 Рыбе В. А. Малый бизнес: история, теория, практика. —М.: ТЕИС, 2000. С. 33.

8 Chatain J., Gaudon R. Petites et moyennes entreprises: l'heure du choix. Paris, 1975. P. 43.



5-jadval. AQSh va Fransiya kichik biznes hamda tadbirkorlik mezonlarining farqli jihatlari

Jihat	AQSh	Fransiya
Biznes madaniyati	Erkin, innovatsion, riskga tayyor	Muvazanatli, hunarmandchilik an'analariga tayangan
Korxona ko'lami	Keng diapazon (500–1 500 nafargacha xodim)	Kichik miqyos (asosan 10–50 nafar xodim)
Tadbirkorning roli	Boshqaruvda ishtirok etadi, biroq ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aralashmaydi	Korxona egasi ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi
Mezonlar	Tarmoqlar bo'yicha differensiallashgan, SBA standartlariga asoslangan	Malaka, sertifikatlash va mustaqil faoliyat yuritish talablari asosida belgilanadi

AQShda riskni qabul qilish tadbirkorlik madaniyatining tabiiy qismi hisoblanadi. AQSh tadbirkorlari «muvaqqiyatga erishish uchun risk qilish zarur» tamoyiliga amal qiladi. Startaplar venchur kapitaldan moliyalashtiriladi, muvaqqiyatsizlik esa tadbirkorlik jarayonining tabiiy bosqichi sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, AQShda amal qiluvchi qonunchilik bozor erkinligini qo'llab-quvvatlaydi, byurokratik talablar nisbatan kam bo'lgani uchun tadbirkorlar o'zini erkin his qiladilar.

Fransiyada esa biznes madaniyati muvozanat, hunarmandchilik an'analari va kasbiy mahoratga tayangan holda shakllanadi. Fransuz tadbirkorlari riskni ehtiyotkorlik bilan qabul qiladi. Asosiy maqsad — yuqori sifatli mahsulot yaratish, uzoq muddatli obro'-e'tiborni mustahkamlash va barqaror mijozlar bazasini shakllantirishdir. Bunday yondashuvda biznes faoliyati hunarmandchilik mahorati va amaliy ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liq. Fransiyada mahsulot nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki estetik va madaniy qadriyatlar bilan ham uyg'un bo'lishi lozim degan tushuncha ustuvorlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes mezonlarining sifat ko'rsatkichlari har bir davlatning o'ziga xos iqtisodiy boshqaruv yondashuvlari, tadbirkorlik madaniyati va bozor modelidan kelib chiqqan holda shakllanib, izchil takomillashib boradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSh va Fransiya kichik biznesni tasniflash mezonlari bir qator umumiyliklarga ega bo'lsa-da, ularning shakllanishi mamlakatning iqtisodiy modeli, tadbirkorlik madaniyati, huquqiy muhit va tarixiy an'analariga bevosita bog'liq. AQSh amaliyoti ko'proq innovatsiya, tez o'sish, bozorni egallash va riskni qabul qilishga tayangan bo'lsa, Fransiya yondashuvi barqarorlik, hunarmandchilik mahorati, kasbiy malaka va sifat ustuvorligiga asoslanadi. Bu ikki modelning farqli jihatlari kichik biznesni belgilovchi sifat mezonlarini bir xil talqin qilish mumkin emasligini, ular mamlakatning iqtisodiy strategiyasiga mos ravishda shakllanishini tasdiqlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, AQShda kichik biznesni belgilashda SBA standartlari, tarmoq bo'yicha differensial mezonlar, affilliklik qoidalari va yillik daromad limitlari muhim o'rin tutadi. Fransiya esa mezonlar nafaqat korxona ko'lami, balki hunarmandning kasbiy mahorati, sertifikatlash talablari, shaxsiy ishtiroki va an'anaviy ishlab chiqarish uslublariga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, Fransiya modelida korxona egasining ishlab chiqarishdagi bevosita ishtiroki kichik biznesning ajralmas belgisi sifatida ko'riladi. AQShda esa tadbirkor ko'proq boshqaruv funksiyalarini bajaradi va ishlab chiqarish jarayoniga kam aralashadi.

Umuman olganda, kichik biznes mezonlarining sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy boshqaruv tizimi, bozor strategiyasi va jamiyat madaniyati bilan uyg'unlashgan holda shakllanishi aniqlangan. Bu mezonlar ishlab chiqarish modelini, mahsulot sifati darajasini, tadbirkorning rolini hamda biznesning rivojlanish dinamikasini belgilab beradi. Tadqiqot natijalari kichik biznesni faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan emas, balki sifat omillari bilan ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripov O. A. Kichik biznes va tadbirkorlik. Darslik (lotin yozuvida). – Namangan: "Mashrab" nashriyoti, 2025. – 356 b.
2. Aripov O. A. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish. – Toshkent: Fan, 2012. – T. 272. – B. 332–334.
3. Aripov O. A. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2020. – 72 b.
4. Rube V. A. Maliy biznes: istoriya, teoriya, praktika. – Moskva: TEIS, 2000. – 30 b.
5. Rube V. A. Maliy biznes: istoriya, teoriya, praktika. – Moskva: TEIS, 2000. – 33 b.
6. Siropolis N. Upravlenie malym biznesom. Rukovodstvo dlya predprinimatelei. Ingliz tilidan tarjima. – Moskva: Delo, 1997. – 20 b.
7. Chatain J., Gaudon R. Petites et moyennes entreprises: L'heure du choix. – Paris, 1975. – P. 43.



8. U.S. Small Business Administration (SBA). Table of Size Standards. – <https://www.sba.gov/document/support-table-size-standards>
9. U.S. Small Business Administration (SBA). Federal Contracting: Size Standards. – <https://www.sba.gov/federal-contracting/contracting-guide/size-standards>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
